



O‘ZBEKISTON VA SAUDIYA ARABISTONI: HAMKORLIK JADAL O‘SIB BORMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 29-dekabr kuni mamlakatimizdagi diplomatik missiyasini yakunlayotgan Saudiya Arabistoni Podshohligining Favqulodda va muxtor elchisi Yusuf al-Utaybiyni qabul qildi.



Davlatimiz rahbari elchining samarali faoliyatini hamda O‘zbekiston bilan Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi har tomonlama sheriklik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga qo‘shgan shaxsiy hissasini alohida ta’kidladi.

Turli darajalarda tizimli muloqot va faol aloqalar yo‘lga qo‘yilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash, to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar hajmi va qo‘shma korxonalar soni jadal o‘shib bormoqda. Saudiya Arabistonining yetakchi kompaniyalari bilan loyihalar portfeli 27 milliard dollardan oshdi.

“Yashil” energetika, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash, infratuzilmani rivojlantirish

va boshqa ustuvor sohalarida loyiha hamda tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

Madaniy-gumanitar almashinuvlar faollashdi. Joriy yilning oktabr oyida Saudiya Arabistonida O‘zbekiston madaniyati kunlari yuqori saviyada o‘tkazildi. Mamlakatimiz Ar-Riyodda bo‘lib o‘tgan Xalqaro kitob ko‘rgazmasida ishtirok etdi.

O‘zbekiston yetakchisi Saudiya Arabistoni Hukumatiga fuqarolarimizning Haj va Umra amallarini ado etishiga yaratilgan qulay sharoitlar uchun minnatdorlik bildirdi.

Uchrashuv yakunida O‘zbekiston Prezidenti Yusuf al-Utaybiyga O‘zbekiston — Saudiya do‘stlik va ko‘p tomonlama sheriklik

munosabatlarini mustahkamlashga qo‘shgan katta hissasi uchun “Do‘stlik” ordenini topshirdi.

Elchi uning diplomatik missiyasiga berilgan yuksak baho hamda O‘zbekiston va Saudiya Arabistoni o‘rtasida keng ko‘lamli hamkorlik rivojini har tomonlama qo‘llab-quvvatlayotgani uchun mamlakatimiz yetakchisiga chuqur minnatdorlik izhor etdi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Matbuot xizmati
surati.

STRATEGIK SHERIKLIKNI KENGAYTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

29-dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning telefon orqali muloqoti bo‘lib o‘tdi.

Suhbat avvalida yetakchilar bir-birlarini yaqinlashib kelayotgan Yangi yil bayrami bilan samimiy tabriklab, ikki mamlakatning qardosh xalqlariga tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladilar. Davlatimiz rahbari Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedovga ham samimiy salomini yo‘lladi.

O‘zbekiston — Turkmaniston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini oliy darajada erishilgan kelishuvlar doirasida yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Barcha darajalardagi muloqotlar faol davom etayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘zaro tovar ayirboshlash va yuk tashish hajmi jadal o‘shib bormoqda. Energetika, sanoat, qishloq va suv xo‘jaligi, transport sohalarida hamkorlik kengaymoqda. “Shovot — Toshhovuz” chegaraoldi savdo zonasi ishga tushirildi. Hududlararo, ishbilarmonlik, madaniy-gumanitar almashinuvlar faollashdi.

Mintaqaviy hamkorlikning asosiy masalalari ham muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari Avazada yirik sammitlar, Ashxobodda Turkmaniston betarafligining 30 yilligi hamda “Xalqaro tinchlik va ishonch yili” munosabati bilan tashkil etilgan forum muvaffaqiyatli o‘tkazilganini alohida ta’kidladi.

Kelgusi yilda bo‘ljak uchrashuvlar rejasini ko‘rib chiqildi, xalqaro va mintaqaviy tadbirlarni birgalikda o‘tkazishni davom ettirishga kelishib olindi.

O‘ZA

IKKI TOMONLAMA ALOQALAR BARQAROR VA IZCHILLIK BILAN RIVOJLANMOQDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozog‘iston Respublikasi birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyev bilan telefon orqali muloqot qildi.

Suhbat avvalida mamlakatimiz yetakchisi va Qozog‘istonning birinchi Prezidenti yaqinlashib kelayotgan Yangi yil bayrami munosabati bilan bir-birlarini samimiy qutlab, qardosh mamlakatlarimiz xalqlariga tinchlik, barqarorlik va ravnaq tilaklarini izhor etdilar.

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yuksak darajaga chiqqani, shuningdek, ko‘p qirrali hamkorlik barcha ustuvor sohalarida izchil rivojlanayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘ZA

JAHON HAMJAMIYATI O‘ZBEKISTON MUVAFFAQIYATLARIGA GUVOH BO‘LYAPTI

O‘zbekiston Prezidentining Oliy Majlis va mamlakat xalqiga Murojaatnomasi xorijiy ekspertlar diqqat markazida

Davlatimiz rahbarining 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasi xalqaro miqyosda keng aks sado berib, xorijiy siyosatchilar, tahlilchilar va ekspertlar hamjamiyatining e‘tiborini tortdi. O‘zbekiston yetakchisining Murojaatnomasi nafaqat islohotlarning navbatdagi bosqichi yakunlari, balki mamlakatni kelgusi davrda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aks ettiruvchi dasturiy bayonot sifatida qabul qilindi.

Davomi 2-betda



Yangi O‘zbekiston ruhi

“Bugungi kunda jamiyatimizda turli xil fikr va qarashlar bo‘lishi tabiiy. Bu — demokratiyaning birlamchi talabi. Ammo millati, tili va dididan qat’i nazar, butun el-yurtimizni birlashtiradigan ulug‘ bir g‘oya bor. U ham bo‘lsa, Vatan manfaati, xalqimiz manfaatidir”.

Bu asosli e‘tirof O‘zbekiston Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga 2025-yil 26-dekabr kuni taqdim etilgan Murojaatnomasida yangradi.

Iftixor

GO‘ZAL VATAN

Sirojiddin SAYYID,
O‘zbekiston xalq shoiri

Millat matonatnomasin jonga joyla,
Jonga joyla, jon birla iymonga joyla.

Bulbulga ham bo‘lgay oshyon go‘zal Vatan,
O‘z yurtini aylar inson go‘zal Vatan.

Men faxr etsam arzigaydir zamonamdan,
Qurdik yangi davr-u davron, go‘zal Vatan.

Bu kunlarga osonlikcha yetmadik biz,
Bermish qancha jonni qurbon go‘zal Vatan.

Dunyo davlatlarin gurros qaratolgan,
Sohibkarvon, sohibsarbon, go‘zal Vatan.

Vatandoshim, yurtning fazl-u kamolin ko‘r,
Jahon ichra yangi jahon, go‘zal Vatan.

Millat matonatnomasin jonga joyla,
Bu yangi jon, bu yangi qon, go‘zal Vatan.

Go‘zal Vatan mahalla-ko‘y, bog‘u bo‘ston,
Yangi kelinchakday jonon, go‘zal Vatan.

Yangi orzu-niyatlardan charog‘ondir,
Ming-ming yangi uy, xonadon, go‘zal Vatan.

Sen jaholat dunyosin ko‘p uyg‘otganding,
Uyg‘ot yana, yana uyg‘on, go‘zal Vatan.

Kirsang islom tamaddunin qasri aro,
Bunda aylar xatni Qur‘on go‘zal Vatan.

Nasib etsa quchgaymiz ham samolarni,
Ziji ko‘ragoniydan shon, go‘zal Vatan.

Yulduzlardan xabar olib kelgaydirmiz,
Bobomeros, bobosmon — go‘zal Vatan.

To‘qqiz yuz ming chaqaloqqa beshik olgan,
Onajon-u ham momojon, go‘zal Vatan.

Vatan emas bukun faqat shahr-u kentlar —
Har o‘g‘il-qiz, har qiz, o‘g‘lon go‘zal Vatan.

Barchamiz ham bu dunyoga mehmonlarmiz,
Go‘zal Vatan, mangu mezbom, go‘zal Vatan.

Hech bir millat bir millatni kamsitmasin,
Bo‘lmasin hech xonavayron, go‘zal Vatan.

Barcha ellar, xor elatlar bo‘lsin obod,
Yashnasin to ilm-u irfon go‘zal Vatan.

TARIXIY MUROJAATNOMA

O‘zbekiston Prezidenti —
yangi O‘zbekiston
parlamentining me‘mori

Keyingi to‘qqiz yilda jamiyatimiz va davlatimiz katta taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Mamlakatimiz hayotining barcha sohalar qatori milliy parlament tizimida ham ulkan islohotlar amalga oshirildi.

Bu haqda fikr yuritganda, albatta, o‘tgan to‘qqiz yil ichida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati dunyo parlamentlariga xos barcha ijobiy xususiyatlarni o‘zida qamrab olganini alohida ta’kidlash lozim.

Prezidentning parlamentga Murojaatnoma taqdim etish amaliyoti yo‘lga qo‘yilgani ushbu fikrimizni tasdiqlaydigan yorqin misoldir.

Dunyo tajribasi aksariyat taraqqiy topgan mamlakatlarda davlat rahbarining milliy parlament a‘zolari huzurida eng asosiy dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy masalalar hamda jamiyatni demokratik rivojlantirish bo‘yicha Murojaatnoma bilan chiqish amaliyoti mavjud ekanini ko‘rsatadi.

Davlatimiz rahbarining parlamentga Murojaatnomasi dasturiy siyosiy-huquqiy hujjat bo‘lib:

birinchidan, Murojaatnomada Prezidentning mamlakatni yaqin istiqbolida rivojlantirishga doir strategik yo‘nalishlar bo‘yicha nuqtayi nazarini bayon qilinadi;

ikkinchidan, Murojaatnoma siyosiy, iqtisodiy, g‘oyaviy-mafkuraviy qoidalar bilan birga parlamentning qonun ijodkorligi faoliyatiga taalluqli aniq takliflarni ham o‘zida aks ettiradi;

uchinchidan, Murojaatnoma jahon konstitutsiyaviy amaliyotida hokimiyat vakolatlari bo‘linishi prinsipini ta‘minlashga qaratilgan muhim huquqiy institutdur.

Davomi 3-betda

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston Prezidenti mamlakatning iqtisodiyot va ijtimoiy sohada asosiy yutuqlarini qayd etib, islohotlarning keyingi yo‘nalishlarini belgilab berdi. Aholining turmush sifatini oshirish, ijtimoiy siyosatni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish zarurligiga alohida e‘tibor qaratildi.

2026-yil “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e‘lon qilindi. Ushbu qaror bilan respublika rahbari makroiqtisodiy muvaffaqiyatlardan ijtimoiy

jarayonlar va inson kapitali bilan chuqurroq ishlashga o‘tish istagini ta’kidladi.

Xorijlik ekspertlarning fikricha, Murojaatnomada bayon etilgan qoidalar amalga oshirilayotgan islohotlarning tizimli va uzoq muddatli xususiyatini aks ettirib, davlat boshqaruvi va ijtimoiy rivojlanishga yondashuvlar evolyutsiyasini namoyon etadi. Tahlilchilarning ta’kidlashicha, mahalliy hamjamiyatlar, ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik ishtirokiga e’tibor O‘zbekistonning iqtisodiy o‘shish va ijtimoiy mas’uliyat muvozanatiga asoslangan inklyuziv rivojlanish modelini shakllantirishga intilishidan dalolat beradi.



Aleksandra Perminova, Rossiya Fanlar akademiyasining Xitoy va zamonaviy Osiyo instituti ilmiy xodimi:

— Prezident Shavkat Mirziyoyev parlament va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida so‘nggi yillarda mamlakatda erishilgan makroiqtisodiy natijalarga alohida to‘xtalib o‘tdi. Islohotlar davrida respublika barqaror iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini namoyish etmoqda.

Rossiya O‘zbekiston iqtisodiyotidagi bunday tendensiyalardan juda manfaatdor. Bu Markaziy Osiyoda mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashga hissa qo‘shadi va savdo-investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Sanoatni rivojlantirishning e‘lon qilingan ustuvor yo‘nalishi alohida e’tiborga loyiq. O‘zbekiston gaz-kimyo, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika va kimyo sanoatida loyihalarni amalga oshirish orqali qayta ishlash tarmoqlari ulushini maqsadli ravishda oshirib bormoqda. Shu ma’noda, mamlakatlarimiz hamkorligi uchun qo‘shimcha imkoniyatlar ochilmoqda.

Rossiya kompaniyalari energetika, jumladan, atom energetikasi, qazib olish tarmoqlari, sanoat uskunalarini yetkazib berish va mahalliyalashtirish loyihalarida ishtirok etmoqda. Ikki mamlakatning sarmoyaviy resurslari va ishlab chiqarish vakolatlarini uyg‘unlashtirish asosida texnologik hamkorlikni chuqurlashtirish uchun zamin yaratilmoqda.

Bugun bizning strategik mo‘ljallarimiz ko‘p jihatdan bir-biriga mos keladi. Bu esa nafaqat O‘zbekiston yoki Rossiya, balki butun mintaqaga taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratadi.



Yan Szipin, “Travel&Leisure” nashri bosh muharriri (Xitoy):

— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2026-yilni “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb nomlashni taklif etdi. Ushbu tashabbusni amalga oshirish doirasida mahallalarni rivojlantirish uchun davlat budjetidan ko‘proq mablag‘ ajratiladi. Chunki bu o‘zini o‘zi boshqarish instituti allaqachon o‘zini oqlagan.

Ularni obodonlashtirish, aholi hayotini yaxshilash, yangi ish o‘rinlari ochish, ishlab chiqarish korxonalari tashkil etishga katta e’tibor qaratiladi.

O‘zbekistonda mahalla noyob jahon tajribasiga ega bo‘lib, odamlarning ahil yashashi va kamol topishi uchun eng qulay muhitdir.

Jahon hamjamiyati O‘zbekistonning yildan yilga muvaffaqiyatli rivojlanib borayotganiga guvoh bo‘lmoqda. Mamlakatda zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or innovatsiyalardan faol foydalanilmoqda.

Shubhasiz, bunday natijalarga faqat o‘z xalqi farovonligi va mamlakat ravnaqini hamma narsadan ustun qo‘yadigan davlat rahbarining oqilona va strategik rahbarligida erishish mumkin.



Ilyas Umahanov, Rossiya Federal Majlisi federatsiya kengashi fan, ta’lim va madaniyat qo‘mitasi raisining birinchi o‘rinbosari:

— Avvalo, Rossiya senatorlar korpusi nomidan Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O‘zbekiston erishgan ulkan natijalarga chuqur hurmatini bildirishga va yaqin istiqbolga mo‘ljallangan ulkan rejalarni qo‘llab-quvvatlashga ijozat bergaysiz.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda keng qamrovli modernizatsiya yo‘lidan dadil va izchil bormoqda. Iqtisodiyotda erishilgan yutuqlar — yalpi ichki mahsulotning o‘shishi, rekord darajadagi investitsiyalar, moliya tizimining mustahkamlanishi ochiq bozor iqtisodiyotini yaratish bo‘yicha tanlangan yo‘lning to‘g‘riligidan dalolat beradi. Ijtimoiy sohada muvaffaqiyatlar alohida taassurot qoldirmoqda. Kambag‘allikni ikki barobar qisqartirish maqsadiga muddatidan oldin erishilgani shunchaki statistika emas, balki millionlab O‘zbekiston fuqarolari hayotining real yaxshilanishi, desak ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

2026-yilning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e‘lon qilingani chuqur ramziy ma’noga ega. Bu qadam

ROSSIYA – O‘ZBEKISTON MUNOSABATLARI KO‘P ASRLIK DO‘STLIK, O‘ZARO HURMAT VA XALQARO KUN TARTIBIDAGI ASOSIY MASALALAR BO‘YICHA POZITSIYALARNING MOS KELISHI YOKI YAQINLIGIGA ASOSLANGAN KENG QAMROVLI STRATEGIK SHERIKLIK XUSUSIYATIGA EGA.

O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING YAPONIYAGA RASMIY TASHRIFI MAMLAKATNING XALQARO MAYDONDAGI O‘RNINI MUSTAHKAMLASHDA MUHIM QADAM

O‘zbekistonning Tokio shahridagi elchixonasida davlatimiz rahbarining 18-20-dekabr kunlari Yaponiyaga rasmiy tashrifi yakunlari va erishilgan kelishuvlar yuzasidan brifing tashkil etildi.

Unda Yaponiya Tashqi ishlar vazirligi, Yaponiya tashqi savdoni rivojlantirish tashkiloti (JETRO), Yaponiyaning Rossiya va yangi mustaqil davlatlar bilan savdo uyushmasi, Yaponiya xalqaro aloqalar instituti, tahlil markazlari va oliy ta’lim sohasi vakillari ishtirok etdi.

Brifing avvalida O‘zbekiston elchisi Muhsinxo‘ja Abdurrahmonov davlat rahbarining Yaponiyaga rasmiy tashrifi barcha sohalardagi uchrashuv va tadbirlarni qamrab olganini ta’kidlab, bu tashrif o‘zbek-yapon strategik hamkorligi tarixida yangi sahifa ochganini ta’kidladi.

Tadbir ishtirokchilariga rasmiy tashrif mobaynida Yaponiya Imperatori, Bosh vaziri, parlamentning ikki palatasi rahbariyati va hukumat a’zolari, shuningdek, ishbilarmon doiralari va akademik hamjamiyat vakillari bilan o‘tkazilgan muzokaralar yakunlari bo‘yicha ma’lumotlar taqdim qilindi.

Brifing yakunida Yaponiya tomoni vakillari O‘zbekiston Prezidentining Yaponiyaga tashrifi yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlashga intilishlarini qayd etdi.

Kyoko Nakayama, Yaponiyaning O‘zbekistondagi sobiq elchisi (1999-2002-yillar), Yaponiya parlamentining Maslahatchilar palatasi sobiq deputati:

— O‘zbekiston Prezidentining Yaponiyaga rasmiy tashrifini katta qiziqish bilan kutadim. Oliy darajadagi uchrashuvlar, ikki tomonlama muzokaralar va erishilgan kelishuvlar ushbu



tashrifni munosabatlarimiz uchun tarixiy voqeaga aylantirdi. Markaziy Osiyodagi hozirgi siyosiy vaziyat men O‘zbekistonda ishlagan davrimdan ancha farq qiladi. Ammo O‘zbekiston rahbariyatining siyosiy imrodosi va tashabbuslari, yaxshi qo‘shnichilik siyosati mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishga imkon berdi.

Mari Suzuki, “Tokyo Foundation” jamg‘armasi ijrochi direktori: — O‘tkazilgan muzokaralarda ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va

kengaytirishga intilish yaqqol namoyon bo‘ldi. Joriy yil sentyabr oyida O‘zbekistonda bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyada shaxsan ishtirok etib, mamlakatimiz demokratik islohotlar va aholini qo‘llab-quvvatlash borasida ilgari lab borayotganiga guvoh bo‘ldim.

Yaponiya tashqi savdoni rivojlantirish tashkilotining (JETRO) Global strategiya departamenti direktori Kuniya Asamoto so‘nggi yillarda Yaponiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar sezilarli darajada rivojlanganini ta’kidladi.

— So‘nggi besh yilda O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan yapon kompaniyalari

soni ikki barobar oshdi, — dedi JETRO vakili. — Yaponiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalari mamlakat iqtisodiyotida, ayniqsa, energetika, axborot texnologiyalari, sanoat, xizmat ko‘rsatish va sog‘liqni saqlash kabi sohalarda muhim rol o‘ynay boshladi.

Yaponiya sayyohlik agentliklari uyushmasi (JATA) ijrochi direktori Xiroshi Tanimura turizm sohasida sezilarli yutuqlarga erishilganini qayd etdi.

— Turizm infratuzilmasi yaxshilanishi bilan O‘zbekiston sayyohlar uchun eng jozibador yo‘nalishlardan biriga aylandi, — dedi u. — 2025-yilda O‘zbekistonga tashrif buyuradigan yaponiyalik sayyohlar soni 30 ming nafardan oshishi tarixiy yutuqdir.

Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlarini o‘rganish instituti ijrochi direktori Tetsuji Tanakaning so‘zlariga ko‘ra, O‘zbekiston Prezidentining tashrifi mamlakatning xalqaro maydondagi o‘rmini mustahkamlashda muhim qadam bo‘ldi.

— Ushbu tashrif O‘zbekistonning global siyosat va iqtisodiyotidagi o‘rmini mustahkamlab, kelgusi hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar ochdi, — dedi ekspert.

Shunday qilib, davlatimiz rahbarining Yaponiyaga tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish, siyosiy va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, turizm sohasidagi hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirishda muhim qadam bo‘ldi.

TADBIRKORLARGA HAL QILUVCHI KUCH SIFATIDA QARALMOQDA



Shavkatbek XOLBOYEV, Toshkent shahridagi “Metsol” MCHJ direktori

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasini har birimiz qizg‘in kuzatdik. Boisi, unda tilga olingan yutuq va muvaffaqiyatlar barchamizga tegishli, belgilangan rejalar har birimizga daxldor. Prezidentimiz kelgusi yillar uchun chizib bergan islohotlar mundarijasidan xalqimizning biror vakili chetda qolmaydi.

Ko‘zlangan oliy maqsad esa mamlakatimiz fuqarolarining har biri daromadli bo‘lishi, kambag‘allikka barham berilib, yurtdoshlarimiz farovonligini ta’minlashga qaratilgan.

2026-yilga “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb nom berilishi keyingi yillardagi islohotlarning uzviy davomi bo‘ldi. Zoro, bugun har kim farovon hayot kechirishi uchun qilinayotgan ishlar bevosita mahalla tizimiga bog‘langani, odamlarning barcha muammolari shu tizimning o‘zida hal etilayotgani hech kimga sir emas. Hatto aholi bandligini ta’minlashni ham mahalla o‘z

zimmasiga olgan. “Mahalla yettiligi” uyma-uy yurib, ishsiz odamlarni qiziqishiga qarab ishga yo‘naltiraypti, bandligini ta’minlayapti. Ochig‘i, bunday yondashuv dunyoning boshqa davlatida kuzatilmaydi.

Joriy yil mamlakatimiz hayotida ulkan yutuq va zafarlarga boy bo‘ldi. Har bir soha vakili buni hech ikkilanmay ayta oladi. Ayniqsa, iqtisodiy o‘shish ko‘rsatkichlarimiz barcha sohalarda aks etib, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tariximizda ilk bor 145 milliard dollardan oshdi, ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi.

Tadbirkor sifatida o‘zim ham ana shu jarayonlarning bevosita ishtirokchisiga aylanayotganimdan quvonaman. Mahalla vakillari bizga chiqib, bo‘sh ish o‘rinlariga ishsiz fuqarolarni taklif qiladi, imkon qadar ularni qabul qilishga intilamiz. Boisi, bugun tadbirkorlarga katta imtiyoz va imkoniyatlar berilib, har tomonlama qo‘llab-quvvatlanayotgan ekan, biz ham aholi bandligini ta’minlash orqali bu ishonchga munosib javob berishga harakat qilamiz.

Ya’ni bugun yurtimizda kechayotgan iqtisodiy islohotlarda tadbirkorlarning ulushi ortib bormoqda. Murojaatnomada odamlarni doimiy daromadli qilishga qaratilgan ishlarda tadbirkorlar hal qiluvchi kuch sifatida eng oldingi safda turib, sanoat va servis obyektlarini tashkil qilish, doimiy ish o‘rinlari yaratish, aholi, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarga kasb o‘rgatib, mahallalarning o‘zida ishi va daromadli qilishda alohida jonbozlik ko‘rsatayotgani ta’kidlandi.

Shu bois, kelasi yilda ham tadbirkorlarga qator imtiyozlar berilib, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun moddiy resurslar ajratilishi aytiladi. Biz ham shunga mos ravishda yurtdoshlarimiz yanada farovon yashashiga hissamizni qo‘shish, hududlarda ko‘proq bo‘sh ish o‘rinlari yaratishni maqsad qilganmiz.

“Dunyo” AA Tokio



TARIXIY MUROJAAATNOMA



Akmal SAIDOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati, Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi
Milliy markazi direktori

Boshlanishi 1-betda

Yanada e'tiborli jihat shundaki, boshqa mamlakatlarda davlat rahbarining asosan parlamentga Murojaatnoma taqdim etish tajribasi kuzatiladi. Yangi O'zbekistonda esa 2017-yildan boshlab ana shu yangicha siyosiy-huquqiy amaliyot yanada demokratik yondashuvlar bilan boyitilib, Prezidentning parlamentga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnoma taqdim etish tajribasi amaliyotga tatbiq etildi.

O'zbekiston hayotidagi bu ilg'or siyosiy-huquqiy an'anang qator ijobiy jihatlari bor. Jumladan, Prezidentimiz Murojaatnomalarini nafaqat parlament a'zolari, balki keng jamoatchilikka havola qilib kelmoqda.

Bu gal ham Murojaatnoma taqdimotida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolaridan tashqari xalq deputatlari viloyat, shahar va tuman kengashlari deputatlari, sud tizimi rahbarlari, hukumat a'zolari, davlat tashkilotlari, idora va muassasalar rahbarlari, ilmiy va ishbarimonlik doiralari namoyandalari, fuqarolik jamiyati faollari, diplomatik korpus hamda xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari vakillari — qariyb 10 ming ishtirokchi onlayn va onlayn tarzda ishtirok etdi.

Agar ushbu muhim siyosiy-huquqiy tadbir har gal televideniye va internet kanallari orqali to'qqiz yilda namoyish etilayotganini e'tiborga olsak, Prezidentimizning Murojaatnomasi butun O'zbekiston xalqiga bevosita murojaat sifatida yanada ahamiyatli ekaniga shubha yo'q.

Ushbu ibratli an'ana yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yildi. Prezident Bosh qonunimizga muvofiq, "O'zbekiston Respublikasi xalqiga hamda Oliy Majlisiga mamlakat ichki va tashqi siyosatini

O'tgan davrda O'zbekistonda huquq va vakolatlari sezilarli darajada kuchaygan, mas'uliyati bir necha karra ortgan yangi xalq vakilligi tizimi shakllantirildi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda Oliy Majlisimiz eng kuchli parlamentlarga xos bo'lgan barcha nazorat vakolatlariga ega".

Bunga amaliy bir misol: 2023-yildan buyon tashqi qarz miqdorini parlamentimiz belgilab kelmoqda. O'z navbatida, O'zbekiston Prezidentining yangi tashabbusi bilan endi davlat kafolati ostida tashqi qarz olish masalasini ma'qullash ham parlament vakolatiga o'tkazilmoqda.

O'zbekiston parlamenti tom ma'noda "xalq uyi"ga aylanib bormoqda. Deputatlar va senatorlar bilan muhokama qilingan barcha tashabbus va rejalarni, sessiyalarda ilgari surilgan g'oya, maqsad va vazifalar mohiyat e'tiboriga ko'ra, nafaqat qonunlarga kiritilmoqda, ayni chog'da Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomalarida ham o'z aksini topmoqda.

Oltinchi Murojaatnomaning asosiy xususiyatlari

Prezident Murojaatnomasi siyosiy va huquqiy jihatdan nihoyatda katta ahamiyatga molik, mohiyatan yondashganda, davlat hokimiyatining barcha tarmoqlariga qaratilgan dasturiy hujjat hisoblanadi. Murojaatnomalar parlamentimiz o'z faoliyatini yangi O'zbekistonga mos ravishda tashkillashtirishi, xalq farovonligini oshirish, jamiyat va davlatni uzoq muddatlarda, jumladan, global iqtisodiy inqiroz davrida ham barqaror rivojlanishini ta'minlash borasidagi vazifalarini bajarishda faol bo'lishini talab etadi.

Shu o'rinda Prezident Murojaatnomalari, bir yillik davlat dasturidan farqli o'laroq, yaqin va uzoq muddatga mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlar hamda eng muhim vazifalarni qamrab olishini e'tirof etish kerak. Xususan, Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga oltinchi Murojaatnomasi jamiyat va davlatni taraqqiy ettirishning yaqin besh yillik strategik hujjatidir.

Ayniqsa, oltinchi Murojaatnoma bu borada orttirilgan milliy tajriba va ko'p yillik xorijiy amaliyotdan tubdan farq qiladi. Yangi Murojaatnoma muayyan xususiyatlariga ko'ra g'oyat tarixiy ahamiyatga ega.

Birinchi xususiyati — Murojaatnomada so'nggi to'qqiz yilda jamiyatimiz va davlatimiz bosib o'tgan katta taraqqiyot yo'li teran hamda xolis tahlil qilindi.

Ikkinchi xususiyati — 2026-yilda amalga oshiriladigan eng muhim 6 ta ustuvor yo'nalishdan iborat istiqbol dasturi taqdim etildi.

Uchinchi xususiyati — "O'zbekiston — 2030" strategiyasini qayta ko'rib chiqish tashabbusi ilgari surildi.



ustuvorligi ta'minlanmoqda. Ijtimoiy, ma'rifiy va huquqiy sohalar muttasil rivojlanmoqda. Asosiysi, shiddatli va qamrovdor islohotlar hayotimizning barcha sohalarida o'z samalarini bermoqda.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, "Biz islohotlarni aniq amaliy natijaga aylantirishni o'rgandik. Buning tasdig'ini tobora yangicha qiyofa kasb etib borayotgan shahar va qishloqlarimizda, zamonaviy korxonalar, savdo-servis maskanlari, maktab, bog'cha va shifoxonalar, obod ko'cha va mahallalar, transport-logistika tizimi, raqamli xizmatlar misolida yaqqol ko'rish mumkin".

Haqiqatan, yangi O'zbekistonni barpo etish va Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini tiklashga qat'iy bel bog'laganimizdan buyon qurilish sohasi mamlakatimiz iqtisodiyotining tayanch tarmoqlaridan biriga aylandi. Eng asosiysi, barcha sohalar qatori qurilish tarmog'idagi ulkan ishlarimiz ham inson qadrini ulug'lash, uning hayotiy manfaatlarini ta'minlashga qaratilmoqda.

Vatanimiz bo'ylab muhtasham va fusunkor, shinam va har tomonlama qulay uylar, bino va inshootlar qurish borasida aql bovar qilmaydigan tekzorkilik bilan g'oyat ulkan ko'lamlardagi bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Xalqimizning ko'z o'ngida qad rostlayotgan zamonaviy turar joylar, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish majmualari, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l va transport tarmoqlari, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport muassasalari, bog' va xiyobonlar obod shahar va qishloqlarimiz qiyofasini tubdan o'zgartirib yubordi.

Ayniqsa, izchil oshib borayotgan investitsiyaviy jozibadorlik tufayli poytaxtimizda bunyodkorlik sur'ati yanada jadallashdi. Ko'p qavatli uy-joylar, mehmonxonalar, biznes markazlar, madaniyat va sport majmualari shahar imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Yangi Toshkent qurilishi boshlanib, ikkisi zamonaviy megapolisga aylanmoqda. Poytaxtimizda ham avtobus, ham metropoliten yo'nalishlari izchil kengaytirilmoqda.

Yurtimiz aholisi farovonligi va turmush madaniyatini oshirish maqsadida shahar va tumanlarda — "siti"lar, qishloq joylarda esa "Yangi O'zbekiston" massivlari ilg'or shaharsozlik yechimlari asosida qurilmoqda. Yangicha maskanlardagi inshootlar nafaqat zamonaviy arxitektura, balki aholi uchun yaratilgan infratuzilmaning qulayligi bilan ham ajralib turadi. Infratuzilma inshootlariga quyosh panellari va geliokollektorlar o'rnatilmoqda. Bu, o'z navbatida, energiya tejamliligini va uzluksizlik, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim omildir.

Keyingi yillarda mamlakatimiz energetika tizimiga 35 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilindi va 9 ming megavatt yangi quvvatlar ishga tushirildi. Natijada elektr ishlab chiqarish hajmi 2017-yildagi 60 milliard kilovatt-soatdan joriy yilda 85 milliard kilovatt-soatga yetdi. Bunda qariyb 5 ming megavattli quyosh va shamol, 400 megavattli gidroelektr stansiyalar ishga tushirilgan alohida e'tiborga sazovor. Chunki toza energiya hisobiga tabiiy gaz sarfi sezilarli kamayib, atmosferaga zararli moddalar chiqishining oldi olinmoqda.

2025-yilda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq qiyinchiliklarga qaramay, agrar sektor rivojida tub burilish yasashga muvaffaq bo'lindi. Paxta, g'alla va meva-sabzavotchilikda yangi navlar ekish, zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish hisobiga yuqori hosildorlikka erishildi. Mirishkor fermerlarimiz paxtachilikda hosildorlikni o'rta 50-60 sentnerdan, ularning 1,5 ming nafari esa 70 sentnerdan oshirgan bo'lsa, g'allachilikda 3,5 mingdan ortiq tajribali fermer o'rta 100 sentnerdan hosil

olgani, hech shubhasiz, ushbu tarmoqlar rivojida yangi davr boshlanayotganidan dalolat beradi.

O'z navbatida, birgina shu yilning o'zida meva-sabzavot yetkazib berilgan davlatlar soni 18 taga ko'payib, 83 taga yetgani qishloq xo'jaligida eksport salohiyati ham ortib borayotganini ko'rsatib turibdi. E'tiborsiz, o'z brendiga asos solib, yurtimizdovrug'ini dunyoga taratayotgan tadbirkorlar doimo qo'llab-quvvatlanmoqda, chunki ular qo'shimcha qiymat yaratib, minglab odamlarni doimiy daromadga

qarshi kurashda keskin va qat'iy pozitsiyani e'lon qildi. 2026-yil korrupsiyaga qarshi kurashda "favqulodda holat" yili sifatida belgilanadi.

"Takror va takror aytaman: korrupsiya — davlat taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan, adolat va qonun ustuvorligini izdan chiqaradigan eng jiddiy tahdid. Korrupsiyaga yo'l qo'yish — islohotlarga xiyonatdir", dedi Prezidentimiz.

Har yili dunyo bo'ylab korrupsiya sababli taxminan 2,6 trillion dollar pul o'g'irlanadi. Bu



ega qilmoqda. Shu ma'noda, Prezidentimizning: "Tadbirkorni qo'llab-quvvatlamasdan Yangi O'zbekistonni barpo qila olmaymiz", degan so'zlari mutlaqo asoslidir.

Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, mustahkam huquqiy tizim va ochiq jamiyat barpo etish yo'lidagi keng ko'lamli islohotlar samaralari, bir tomondan, xalqimiz uchun munosib turmush darajasini ta'minlash borasidagi imkoniyatlarimizni yanada mustahkamlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu yo'ldagi ulkan yutuqlarimiz dunyo jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda e'tirof etilmoqda.

Prezidentimiz Murojaatnomada "O'zbekiston — 2030" strategiyasini qayta ko'rib chiqish tashabbusini ilgari surar ekan, ushbu amaliy taklifni har tomonlama chuqur tahlil va qat'iy isbot qilib bergani juda muhim. Aslida, davlatimiz rahbari so'zlari bilan aytganda, bundan ikki yil oldin ushbu strategiyani qabul qilganimizda yalpi ichki mahsulot hajmini 2030-yilgacha 160 milliard dollarga yetkazish belgilab olingandi.

Shu qisqa davrda yurtimizda amalga oshirilgan shiddatli yangilanishlar, bunyodkor xalqimizning yaratuvchanlik mehnati evaziga turli sohalarida ko'plab samolmoq natijalar qo'lga kiritildi. Majvud salohiyatimiz, islohotlarimiz, tadbirkorlarimiz faolligi, xorijiy sheriklarimiz bilan hamkorligimiz o'sib borayotganini hisobiga bu marraga 2026-yilning o'zida bemaol erisha olishimiz ayon bo'lib turibdi.

Korrupsiyaga qarshi qat'iy kurash e'lon qilindi

Prezidentimiz Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida korrupsiyaga

xizmatlari soni 15 karra ortib, 721 taga yetdi, ulardan foydalanuvchilar esa 11 milliondan oshdi. Ushbu choralarining barchasi yurtimizda maishiy korrupsiya darajasining sezilarli darajada pasayishiga sabab bo'ldi.

Korrupsiya darajasini baholash bo'yicha xalqaro tashkilotlarning reyting natijalari ham O'zbekistonda bu boradagi islohotlar samaradorligini ko'rsatmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashishdagi ijobiy ishlar bilan birga ushbu sohada to'liq foydalanilmayotgan imkoniyatlar va e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalar ham mavjud.

Shu nuqtayi nazardan, Prezidentimiz Murojaatnomasida, jumladan, 2026-yildan e'tiboran:

— barcha davlat idoralarida komplyens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat uchun mas'ul o'rinsbosar lavozimi joriy etilishi;

— Hisob palatasi vakillari faoliyati yo'lga qo'yilib, byudjet mablag'lari talon-taroj qilinishi va mansab suiste'molchiligi qarshi ta'sirchan nazorat o'rnatilishi;

— Prezident Administratsiyasi Komplyens xizmati 1-yanvardan barcha davlat idoralarida ayni tizimni ishga tushirib, har bir holat yuzasidan Prezidentga bevosita axborot kiritib borishi belgilangan juda muhim.

Yanada muhim, qonun oldida hamma tengdir. Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, "Lavozimim bor, menga hech kim tegmaydi", deganlar qattiq adashadi. Hech bir idora, hech bir tashkilot, hech bir mansabdor nazoratdan chetda qolmaydi. Komplyens xizmatining ishiga to'sqinlik qilish korrupsiyaga sheriklik sifatida baholalanadi.

Mahalla rivojlansa, butun mamlakatimiz yuksaladi

Yangi O'zbekistonni barpo etishda jamiyatimiz va davlatimiz "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan insonparvar g'oyaga amal qilmoqda. Mahalla — jamiyatning yuzi. Mamlakatimizdagi barcha o'zgarishlar, avvalo, shu yerda o'z ifodasini topadi. Prezidentimiz tashabbusi bilan shunday tizim yaratildi, ilgari jiddiy deb hisoblagan ko'plab masalalarga yechim endilikda aynan mahallaning o'zida topilyapti.

Shu ma'noda, mamlakatimizda 2026-yil "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilgani bejiz emas. Zero, davlatimiz rahbari ishonch bilan qayd etganidek, "Mahalla tinch va ahil bo'lsa, jamiyatimiz tinch va hamijhat bo'ladi. Mahalla rivojlansa, butun mamlakatimiz yuksaladi".

Prezidentimiz 2026-yil davlat boshqaruvi, sud-huq q tizimi, iqtisodiyot tarmoqlari, ta'lim, ilm-fan, tibbiyot, madaniyat, sport, ekologiya tizimini — barcha-barcha sohalarini rivojlantirishda tub burilish yili bo'lishini ta'kidladi. Shu bois, Murojaatnomada 2026-yili amalga oshiriladigan quyidagi eng muhim 6 ta ustuvor yo'nalishdan iborat dastur taqdim etildi:

— birinchi ustuvor yo'nalish — mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash, ularga yangi O'zbekiston qiyofasini olib kirish;

— ikkinchi ustuvor yo'nalish — iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish;

— uchinchi ustuvor yo'nalish — ichki bozorda talabni rag'batlantirish;

— to'rtinchi ustuvor yo'nalish — kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish;

— beshinchi ustuvor yo'nalish — ekologik muvozanatni ta'minlash, "yashil" energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish;

— oltinchi ustuvor yo'nalish — zamonaviy davlat boshqaruvi va adolati sud-huq tizimi borasidagi islohotlarni davom ettirishdan iborat.

Davlatimiz rahbari kelgusi yilda ma'naviyat sohasini yanada rivojlantirish, ijtimoiy-madaniy hayotimizdagi muhim sanalarni keng nishonlash masalalariga ham to'xtaldi. Jumladan, 2026-yilda Vatanimiz mustaqilligining shonli 35 yilligi katta bayram qilindi. Shuningdek, Sohbiqiron Amir Temur, Mir Alisher Navoiy bobolarimizning qutlug' tavallud ayyomlarini nishonlaymiz.

Xulosa qilib aytganda, jonaguj Vatanimiz bugun yangicha siyosiy-huquqiy, ijtimoiy, ma'naviy munosabatlarni asosida yashab, mehnat qilayotgan, mustaqil fikrlaydigan, ozod va erkin insonlar diyoriga aylanmoqda. Prezidentimiz faxru iftixor bilan e'tirof etganidek, "Biz — bugun 38 milliondan ziyod katta xalqimiz. Mashaaqqatli va sharaflil mehnatimiz bilan dunyoda hurmat topayotgan, ertangi kunga ishonch bilan dadil borayotgan, matonatli va g'urruri baland millatimiz. Biz o'zgarishlarni kutib yashamaymiz, aksincha, ularni o'zimiz, o'z aql-zakovatimiz va mas'uliyatli mehnatimiz bilan yaratamiz".



amalga oshirishning eng muhim masalalari yuzasidan murojaat qilish huquqiga ega".

Davlatimiz rahbari mazkur konstitutsiyaviy norma talablariga rioya qilgan holda so'nggi to'qqiz yilda parlamentimiz va xalqimizga oltinchi bor Murojaatnoma bilan chiqdi. Bu, o'z navbatida, Prezidentimiz Konstitutsiyada muhrlangan huquq va erkinliklarimiz kafali sifatida Konstitutsiyaga qat'iy amal qilish borasida barchamizga o'rnak va namuna bo'lib kelayotganiga yaqqol dalolatdir.

Binobarin, Prezident Bosh qonunimizda belgilanganidek, "fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining, O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligining kafilidir".

Shu bilan birga, O'zbekiston Prezidenti yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan davlat hokimiyati tizimidagi uch tarmoq — qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini nechog'liq muvaffaqiyat bilan ta'minlab kelayotgani tahsinga sazovor.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasi: tahlil va tashabbus

So'nggi to'qqiz yilda xalqimiz va yurtimiz taraqqiyot pillapoyalari bo'ylab izchil yuksaldi. Milliy iqtisodiyot qayta shakllandi, qonun



SUN'YI INTELEKT ASOSIDA DIAGNOSTIKA

YURTIMIZ TIBBIYOT SOHASIDA ILG'OR TEXNOLOGIYALAR IZCHIL QO'LLANILMOQDA

So'nggi paytlarda tibbiyot sohasidagi islohotlar, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning izchil joriy etilishi O'zbekistonni Markaziy Osiyoning yetakchi tibbiyot xabiga aylantirishga xizmat qilmoqda. Institutsional o'zgarishlar uzoqni ko'zlagan strategik siyosat, tibbiy infratuzilmani yangilash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan aniq chora-tadbirlar natijasidir.



Shuhrat BOYMURODOV,
Toshkent davlat tibbiyot
universiteti rektori

Xalqaro standartlar asosida tashxis va davolash protokollari joriy etilib, yuqori texnologiyali klinikalar hamda ixtisoslashgan markazlar barpo etilmoqda. Sun'iy intellektga asoslangan raqamli diagnostika tizimlari tashxis aniqligini keskin oshirib, shifokorlar yuklamasini kamaytirmoqda. Jumladan, mammografiya, KT va MRT kabi yo'nalishlarda sun'iy intellekt platformalarining 98 foizga yaqin ishonchligi amaliyot samaradorligini sezilarli oshirmoqda.

Tibbiy ta'limda ham modernizatsiya davom etib, oliygo'harlar sun'iy intellektga asoslangan o'quv platformalariga o'tmoqda, ilmiy markazlar esa yuqori texnologiyali laboratoriyalar bilan ta'minlanmoqda. Nvidia kompaniyasi bilan hamkorlikda qurilayotgan super kompyuter klasteri va laboratoriyalar yurtimizda tibbiyot ilmining yangi yo'nalishlarini rivojlantirish uchun muhim zamin yaratadi.

Yana bir innovatsion jihat — tibbiy turizmning o'sishi, xorijiy bemorlar uchun yuqori sifatli xizmatlar taklif etayotgan zamonaviy klinikalar ko'payishi mamlakatimizni mintaqada raqobatbardosh tibbiyot markaziga aylantirmoqda. Texnologik taraqqiyot shunday sur'atda davom etsa, O'zbekistonning tibbiyot xabi sifatidagi nufuzi yaqin istiqbolida mustahkamlanishi tabiiy.

Prezidentimizning sun'iy intellekt bo'yicha xalqaro forumdagi nutqida nafaqat sun'iy intellektning bugungi ahamiyati, balki uning kelajakda iqtisodiyot, ilm, ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy hayot uchun qanday transformatsiya kuchiga aylanishi mumkinligi chuqur tahlil asosida bayon etildi.

Davlatimiz rahbari yoshlar tomonidan yaratilgan sun'iy intellekt loyihalarini bilan tanishar ekan, axborot texnologiyalarining

mamlakat barqaror taraqqiyoti, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va global innovatsion jarayonlarda munosib o'rin egallashdagi hal qiluvchi ahamiyatini alohida ta'kidladi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan raqamli islohotlar, milliy SI strategiyasining qabul qilinishi, samoya ortishi, zamonaviy ta'lim dasturlari va o'quv laboratoriyalari tashkil etilishi yangi O'zbekistonning ilmiy-texnologik qudrati tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarining inson hayotiga eng tez va samarali ta'sir ko'rsatayotgan yo'nalishlaridan biri tibbiyotdir. Bugun raqamli diagnostika tizimlari joriy etilishi natijasida yurtimizda 50 mingdan ortiq bemorga sun'iy intellekt yordamida aniq tashxis qo'yilgani, bu jarayon vaqti bir necha kundan soatlarga qisqargani, shifokorlar yuklamasi keskin kamaygani soha imkoniyatlari qanchalik kengayganini yaqqol ko'rsatadi. Mammografiya, onkologiya va kardiologiyada sun'iy intellekt platformalari tomonidan berilgan xulosalarning 98 foizi shifokorlar tomonidan tasdiqlangan ushbu texnologiyaning ishonchligi, ilmiy asoslangani va amaliy qiymatini yanada mustahkamlaydi. Xususan, Qoraqalpog'istondagi "Salomatlik marafoni"



doirasida mammografiya tekshiruvlarining 70 foizi mahalliy SI platformalar orqali tahlil qilinishi, tashxis qo'yish vaqtining 5-7 barobar qisqarishi raqamli tibbiyot kelajagi naqadar ulkan ekanini ko'rsatadi.

Sun'iy intellektning bunday yutuqlari tibbiy amaliyotni zamonaviy darajada individuallashtirish, xavf omillarini oldindan

bashorat qilish, kasalliklar dinamikasini real vaqt rejimida kuzatib borish va jamiyat salomatligini strategik boshqarish imkoniyatini yaratmoqda. Inson qadri va xalq manfaatlarini ustuvor bo'lgan bugungi islohotlar jarayonida tibbiyotni diversifikatsiyalash nafaqat davolash samaradorligini oshiradi, balki profilaktika,



ya'ni kasalliklarning oldini olish tizimini ham yangi bosqichga olib chiqadi. Shu sababli sun'iy intellekt endilikda tibbiy bilim, raqamli ma'lumotlar tahlili, klinik qaror qabul qilish va laboratoriya tadqiqotlarini avtomatlashtirishning asosiy omiliga aylanmoqda.

etiladigan super kompyuter klasteri, xalqaro tajriba almashish platformalari, iqtidorli yoshlar uchun tanlovlar va stajirovkalar — bularning barchasi mamlakatimizni nafaqat texnologiyalar iste'molchisi, balki ularni yaratuvchi, eksport qiluvchi hamda jahon miqyosida raqobatlasha oladigan markazga aylantirish yo'lidagi

ulkan qadamlardir. Ayniqsa, tibbiyot sohasida sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslangan maxsus laboratoriyalar tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Bunday laboratoriyalar klinik ma'lumotlarni intellektual tahlil qilish, raqamli diagnostika algoritmalarini yaratish, ilg'or neyrotarqoq modellari va mashinali o'rganish texnologiyalarini mahalliy sharoitga moslashtirish, tibbiy tasvirlarni avtomatik tanib olish, farmakologiyada individual davolash modellari ishlab chiqish kabi yo'nalishlarda yurtimizning ilmiy salohiyatini yangi bosqichga olib chiqadi. Bu esa mamlakat tibbiyotini raqobatbardosh, tezkor, innovatsion va yuqori samarali tizimga aylantirish imkonini beradi.

Sun'iy intellekt ta'lim, fan, ishlab chiqarish va tibbiyot bilan chuqur integratsiya qilish strategik zaruradir. Chunki SI nafaqat texnologiya sifatida emas, balki ilm-fanning yangi paradigmasi, milliy taraqqiyotning asosiy drayveri va inson salomatligini asrashda kuchli vosita sifatida ko'rish vaqti keldi. Uning imkoniyatlaridan to'liq foydalanish uchun kadrlar tayyorlash tizimi, zamonaviy infratuzilma, tajribali mutaxassislar, laboratoriyalar, raqamli ma'lumotlar bazasi, ilmiy hamkorlik va xalqaro tajriba almashuvi kabi unsurlar yagona maqsad sari uyg'un holda ishlashi lozim.

Ajdodlarimiz ilm yaratgan. Biz esa uni davom ettirish, zamonaviy texnologiyalar bilan boyitish, yangi ilmiy yo'nalishlarni kashf qilish, mamlakatimizni intellektual salohiyat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarish va kelajak avlodga mazmunan boy, ilmiy asosli, zamonaviy talakungga ega meros qoldirish mas'uliyatini zimmamizga olgan avlodimiz. Ilm — boqiy

daryo, oqimi to'xtamaydi. Bizning vazifamiz uning sohilari kengaytirish, uni yangi manbalar bilan boyitish va inson hayoti hamda jamiyat taraqqiyoti uchun yanada katta foyda keltirishdir.

Sun'iy intellekt inson aqlining mantiqiy qonuniyatlari va tahlil qilish xususiyatini algoritmalar orqali qayta tiklab, katta hajmdagi ma'lumotlardan mustaqil o'rganib boradigan intellektual tizim bo'lib, u zamonaviy "isbotlangan tibbiyot"ning yangi bosqichini shakllantirmoqda. Ilgari shifokor, ayniqsa, murakkab operatsiyaga kirishishdan avval, asosan, tajribasi, ustozlari ko'rsatmalari va chegaralangan klinik ma'lumotlarga tayangan. Inson tajribasi qanchalik boy bo'lmasin, uning xotirasi, diqqat imkoniyati hamda tahlil qilish quvvati muayyan darajada cheklangan.

Sun'iy intellekt esa inson imkoniyatlarini cheksiz ma'lumotlar manbalari bilan to'ldirib, klinik qaror qabul qilish jarayonini yuqori aniqlik darajasiga ko'taradi. Chunki SI millionlab bemorlar tarixi, minglab klinik tadqiqotlar, rentgen, MRT, UTT kabi tasvirlar, laborator tahlillar, biologik ko'rsatkichlar va o'xshash operatsiyalar natijalarini bir vaqtning o'zida taqqoslab, ulardan qonuniyatlarini aniqlaydi va shifokorga ilmiy asoslangan xulosalarni taqdim etadi. Bu jarayon inson tafakkuri uchun nihoyatda murakkab va yillar talab etadigan vazifalarni bir necha soniya yoki daqiqalarda bajarish imkonini beradi.

Shu sababli sun'iy intellekt "isbotlangan tibbiyot"ning mantiqiy davomiga aylandi. "Isbotlangan tibbiyot" har bir klinik qarorni ilmiy dalillar, statistik tahlil va tajribaga tayangan holda qabul qilishni talab etadi. Sun'iy intellekt aynan shu dalillar bazasini keskin kengaytirib, uni aniq, xolis va tizimli tahlil qilishga yordam beradi. Inson ko'zi ilg'ay olmaydigan nozik belgilarni, to'qima tuzilishidagi mikroo'zgarishlarni, xavfsiz operatsiya yo'lini yoki asorat xavfi yuqori bo'lgan nuqtalarni oldindan aniqlab, shifokorga tavsiya qiladi. Masalan, jarrohlik amaliyoti oldindan sun'iy intellekt asosida tuzilgan 3D modellash tizimlari organlarning aniq joylashuvini, qon tomirlari tarmog'ining individual tuzilishini ko'rsatadi va operatsiya taktikasi uchun eng optimal variantni tanlash imkonini beradi. Mammografiya va onkologiyada esa sun'iy intellekt murakkab tasvirlarda shifokor ko'zi qiyinchilik bilan ajrata oladigan mikroskopik o'zgarishlarni ham aniqlay oladi.

Bunday ilmiy asoslangan, yuqori aniqlikka ega xulosalar shifokor ishini yengillashtiribgina qolmay, bemorga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat sifatini ham sezilarli darajada oshiradi. Tashxis qo'yish vaqti qisqarishi, operatsiya xavfi kamayishi, davolash jarayoni individual tus olishi, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash imkoniyatlari kengayishi sun'iy intellektning amaliy ustunliklarini yaqqol namoyon etadi. Uning eng muhim jihatlardan yana biri shundaki, charchamaydi, diqqatini yo'qotmaydi, hissiyot ta'sirida qaror qabul qilmaydi va har bir tahlilni bir xil barqaror aniqlik bilan bajaradi.

Sun'iy intellekt ta'lim, fan, ishlab chiqarish va tibbiyot bilan chuqur integratsiya qilish strategik zaruradir. Chunki SI nafaqat texnologiya sifatida emas, balki ilm-fanning yangi paradigmasi, milliy taraqqiyotning asosiy drayveri va inson salomatligini asrashda kuchli vosita sifatida ko'rish vaqti keldi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt tibbiyotda klinik qarorlar qabul qilishni ilmiy dalillar bilan mustahkamlaydi, shifokor imkoniyatlarini millionlab klinik tajribalar asosida shakllangan intellektual baza bilan boyitadi. U shifokor o'rini egallamaydi, ammo uning kasbiy salohiyatini kengaytiradi, inson omiliga bog'liq xatolarni minimallashtiradi va zamonaviy tibbiyotni yuqori aniqlik, tezkorlik va samaradorlikka asoslangan yangi bosqichga olib chiqadi. Shu bois, sun'iy intellekt o'rganish, uni klinik jarayonlarga chuqur integratsiya qilish va uning imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish bugungi kunning eng dolzarb ilmiy hamda amaliy talablardan biriga aylandi. Biroq bu jarayon faqat tibbiyot ichidagi islohotlar bilangina cheklanmaydi. Bunday ulkan innovatsion o'zgarishlar, yuqori texnologiyali infratuzilmani yaratish va sohaga katta miqdordagi investitsiyalarni yo'naltirish natijasida yangi O'zbekiston tibbiyoti mintaqada strategik ahamiyatga ega tibbiyot xabiga aylanish uchun real imkoniyatga ega bo'ladi. Zamonaviy laboratoriyalar, super kompyuter klasterlari, robotlashtirilgan operatsiya xonalari, yuqori texnologiyali ixtisoslashgan markazlar barpo etilishi mamlakatga nafaqat o'z ehtiyojini qondirish, balki qo'shni davlatlardan yuqori sifatli tibbiy xizmat izlab keladigan bemorlarni qabul qilish imkonini ham yaratadi.

Bu esa amaliyotda bir nechta muhim ustunlikka ega:

— mintaqada malakali kadrlar tomonidan amalga oshiriladigan murakkab operatsiyalar va yuqori texnologiyali tibbiy xizmatlarni taqdim etish;

— tibbiy xizmatlar orqali qo'shimcha qiymat yaratish va sohaning iqtisodiy samaradorligini oshirish;

— tibbiy turizmni rivojlantirish hisobiga mamlakatga valyuta tushumlarini ko'paytirish;

— milliy tibbiyot maktabi nufuzini oshirish, ilmiy tadqiqot salohiyatini kuchaytirish.

Tibbiyot sohasini raqamlashtirish va sun'iy intellekt keng joriy etish nafaqat sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qiladi, balki mamlakat iqtisodiyoti uchun ham strategik ahamiyatga ega bo'lgan yangi qo'shimcha qiymat zanjirini shakllantiradi. Yangi O'zbekiston tibbiyoti ana shu integratsiya yondashuv orqali Markaziy Osiyoning yuqori texnologik tibbiyot markaziga aylanish yo'lidagi izchil va mustahkam qadamlar bilan ilgirib bormoqda.

OLY TA'LIM ISLOHOTLARI

ISHONCH VA INSTITUTSIONAL BARQARORLIKDA YAQQOL NAMOYON

Ilm-fan

Mamlakatimizda so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro ta'lim makoniga integratsiyalash va hududiy rivojlanishning muhim drayveriga aylantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat siyosatining ushbu yo'nalishida oliy ta'lim muassasalari institutsional salohiyati, boshqaruv samaradorligi va tashqi akademik ishonch masalalari ustuvor ahamiyat kasal etyapti.



Aziza BOZORBOYEVA,
Farg'ona davlat universitetining
xalqaro hamkorlik bo'yicha
prorektori

Bunga Farg'ona davlat universitetidagi faoliyatim mobaynda o'zim guvoh bo'lyapman. Jumladan, 2021-yildan buyon universitetimizda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, infratuzilmani bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan tizimli choralar ko'rilishi natijasida o'sha yili 241

milliard so'm bo'lgan universitet budjeti 2025-yil yakuniga kelib, 537 milliard so'mga yetdi. Bu ko'rsatkich oliygo'har imkoniyatlari kengaygani, ta'lim va ilmiy muhitni zamon talablari asosida yangilash uchun puxta zamin hozirlanganini anglatadi.

Shuningdek, infratuzilma rivoji ta'lim yo'nalishlari va ilmiy faoliyat ko'lami bilan hamohang kechdi. Pirovardida fakultetlar soni 8 tadan 12 taga, kafedrlar 40 tadan 51 taga, ta'lim yo'nalishlari 60 tadan 82 taga, magistratura mutaxassisliklari 34 tadan 41 taga yetkazildi. 7 ta ilmiy va 28 ta o'quv laboratoriyasi tashkil etilib, qo'shimcha o'quv binolari hamda talabalar turar joylari barpo etildi.

Ilmiy muhitni kuchaytirish, professor-o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilarni rag'batlantirishga qaratilgan aniq mexanizmlar yo'lga qo'yildi. Natijada dissertatsiya yoqlashlar soni 51 tadan 126 taga yetib, ilmiy salohiyat 26 foizdan 62 foizga ko'tarildi.

Hozir universitetda mahalliy va xalqaro grantlar doirasida ilmiy tadqiqot va innovatsion



loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu loyihalar ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Ta'lim sifatini oshirish maqsadida yetakchi OTMlarning 300 talik ro'yxatidagi universitetlar tajribasi asosida 454 ta o'quv dasturi

takomillashtirildi. Elektron kutubxona bazasi 95 foizgacha kengaytirildi, o'qitish jarayonida raqamli yechimlar joriy etildi.

"Yashil oliygo'har" tashabbusi doirasida universitet binolariga quyosh panellari o'rnatilib, barqaror rivojlanish tamoyillari amaliyotga tatbiq etildi. Universitetda umumiy qiymati 2 milliard 298 million so'mlik 19 ta mahalliy, 3 ta xalqaro va 1 ta startup loyiha amalga oshirilmoqda. Bu ko'rsatkichlar yoshlar tashabbuslari faol qo'llab-quvvatlanayotgani, ilmiy-innovatsion ekotizim shakllanayotganidan dalolat beradi. Talabalar yutuqlari ham e'tiborga molik. 207 talabamiz turli chempionatlarda g'olib bo'ldi.

Institutsional islohotlar xalqaro baholash tizimlarida ham o'z aksini topmoqda. 2025-yilda Farg'ona davlat universiteti QS institutsional baholash tizimida 4 yulduzli sertifikatga ega bo'ldi, QS Asia reytingida 901-950 oraliqda qayd etildi. Shuningdek, UI GreenMetric xalqaro reytingida dunyo miqyosida 327-o'rinni egalladi.

Bundan tashqari, universitetimiz 2025-yilda qator yirik xalqaro ilmiy forumlarga mezbonlik qilib, mintaqada akademik muloqot va hamkorlik geografiyasini kengaytirishga munosib hissa qo'shdi.

Umuman olganda, Farg'ona davlat universiteti tajribasi oliy ta'lim sohasidagi islohotlar izchil, institutsional barqaror va xalqaro ishonch asosida amalga oshirilganda qisqa muddatda aniq natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatadi. Bunday yondashuvlar milliy oliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Reyngold Glier tavalludining 150 yilligi

O‘ZBEK “GULSARA”SINI SEVGAN OLMON BASTAKORI

Reyngold Glier hayoti va ijodiga chizgilar

Musiqaning tugal asar shakliga keltirilishi, bir ohang orqali insonga ruhiy ozuqa beradigan kuylarning yaratilishi bastakorlik ijodiyoti bilan bog‘liq. Uning mazmuni xalq ma’naviy dunyosini zamonga mutanosib holda aks ettirib, qayta taqdim etishdan iborat. Unda davr nafasi, xalq dunyoqarashi, ruhiyati, falsafasi, e’tiqodi, estetikasi kabi jihatlar mukammal uyg‘un bo‘lishi lozim.

Bastakorlik ijodi va umuman, musiqa san’atining turli yo‘nalishlari bilan bog‘liq masalalar IX-XVII asrlarda yashab ijod etgan Al-Kindiy, Abu Abdulloh Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marog‘iy, Abdurahmon Jomiy, Zaynulbiddin Husayniy, Najmiddin Kavkabiy, Darvishali Changiy kabi allomalarning musiqa ilmiga oid risolalarida bayon etilgan.

Qayd etilishicha, musiqa nazariyasi va amaliyoti azaldan o‘zaro bog‘liq holda shakllanib kelgan. Markaziy Osiyo hududida VI asrning ikkinchi yami va VII asrning boshida yashagan afsonaviy sozanda va bastakor Borbad Marvaziyning ijrochilik merosi musiqa ijodiyotining ilk qadamlari sifatida e’tirof etiladi.

Amir Temur hamda temuriylar davri esa O‘rta va Yaqin Sharq xalqlari musiqa san’atining rivojlangan, ya’ni Uyg‘onish (Oltin) davri bo‘lgani bir necha tarixiy manbalarda o‘z isbotini topgan. Ushbu davrda ilm-fan har tomonlama taraqqiy topdi. Musiqa san’atiga xos barcha yo‘nalish bir-biriga uyg‘un holda rivojlandi. Ular qatorida bastakorlik ijodi kamolot davrini o’tadi.

Temuriylar davri musiqa madaniyati hayoti Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr”, “Mahbub ul-qulub”, “Majolis un-nafois”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Holoti Hasan Ardasher” kabi bebaho asarlarida asosli yoritilgan. Musiqa ijodiyoti doirasida bastakorlikning turli jihatlarini har tomonlama Navoiy qarashlari bilan tahlil etilgan.

XX asrga kelib, musiqa ilmi yangi oqimlar bilan boyidi. O‘zbekiston musiqa madaniyati tarkibida Yevropadan ko‘p ovoqli kompozitorlik ijodi va ijrochiligi kirib keldi. Uzoq o‘tmishli, muayyan shaklga ega va ajdoddardan avlodlarga o‘tib kelayotgan an’anaviy bastakorlik ijodiyoti e’tibordan chetda qoldi. Shunday bo‘lsa-da,



ushbu yo‘nalish davom ettirildi, bastakorlarning yangi avlodi o‘zidan oldingi ijodkorlarning an’analari davom ettirgan holda o‘ziga xos uslublarni yaratdi.

Musiqaning ajoyib xususiyatlaridan biri shundaki, u til tanlamaydi. Bir xalqning dardi, quvonchi, orzu-umidlari boshqa xalq yuragida ham aks sado beradi. Sharq maqomlaridagi

sokin ohanglar bilan Yevropa simfoniyasidagi ulug‘vorlik bir-biridan uzoqdek tuyulsa-da, aslida, ikkalasi ham borliqning cheksizligini ifodalaydi. Shu sabab musiqa doimo madaniyatlararo muloqotning eng kuchli vositasi bo‘lib kelgan. U siyosiy chegaralarni tan olmaydi, mafkuralardan balandroq turadi va vaqtga bo‘ysunmay yashay oladi.

Aynan mana shu — umumiylik va milliylik o‘rtasidagi nozik muvozanat asrlar davomida yashovchanligini ta’minlab keldi. XX asr boshida ana shu muvozanatni chuqur his qilgan va uni ijodiy mezonaga aylantira olgan professional kompozitorlar paydo bo‘la boshladi. Reyngold Glier ana shunday san’atkorlardan biri edi. U musiqani turli madaniyatlar ruhini birlashtira oladigan “yuksak til” sifatida anglab, butun ijodini shu g‘oyaga bo‘ysundirdi. Shu sabab Glier ijodi xususida so‘z yuritish, avvalo, musiqa mohiyati, uning ilm va ilhom o‘rtasidagi nafis chegaralari haqida fikr yuritish demakdir.

Uquvsiz usta yigitning maftunkor musiqa olami

Kiyevning mashhur Bessarabka hududidagi Basseyupaya ko‘chasida — Klingental shahridan Ukrainaga ko‘chib kelgan nemis fuqarosi Moris Glier oilasida 1875-yil 11-yanvarda (yangi hisob bo‘yicha) o‘g‘il farzand dunyoga keldi. Mehribon ota-ona unga Reyngold deya ism berdi.

Oila boshlig‘ otameros kasb — musiqa uskunalari ustachiligi bilan shug‘ullanar, mis damli cholg‘ular yashash orqali oilasining kam-ko‘stini ta’minlar edi. U kichik ustaxonasini faxr bilan “fabrika” deb atar, kunning asosiy qismini shu “fabrika”da o‘tkazardi. Bo‘ljajak bastakorning onasi — asli polyak naslidan kelib chiqqan Jozefina Korchak nihoyatda ma’rifatli

Ota-ona bolakayning qiziqishiga qat’iyan qarshi chiqib, uni bu fikridan qaytarishga urinadi. Chunki oilaga moliyaviy masalalar tufayli bir so‘m ishlab topishi ham dargumon bo‘lgan o‘rtamiyona musiqachi emas, balki mohir usta kerak edi. Bunday tez-tez sodir bo‘luvchi tushunmovchiliklar ta’sirida bo‘ljajak bastakorning fe’l-atvori shakllana boshladi. Kamgap bola xonasiga qamalib, o‘z muammolarini hech kim bilan bo‘lishgisi kelmas, lekin shu bilan birga, doimo o‘zining boshqalar oldida nimaga qodir ekanini namoyon etishga intilardi.

Ta’qiqlarga qaramay, Reyngold o‘z orzusi sari qat’iyat bilan harakat qildi. O‘n yoshida uni gimnaziyaqa joylashtirishganda ota-onasidan yashirincha ilk bor skripkani qo‘liga oldi va nihoyatda arzon haq evaziga ushbu cholg‘uni o‘rgatuvchi ustozni topdi. Glierning dastlabki musiqa muallimlaridan biri kexsa havaskor skripkachi bo‘lsa, keyingisi musiqa bilim yurti talabasi bo‘ldi.

Yaqinlarining xohishlariga qarshi chiqish barobarida imtihonlar uchun to‘xtovsiz o‘qib, izlangan yosh musiqachi 1891-yilda musiqa bilim yurtiga o‘qishga kirdi va ajoyib pedagog — chex skripkachisi Shevchik sinfida tahsil ola boshladi. Bir yil

undadi. Ko‘ngil aldamadi, konservatoriya yigitcha uchun navbatdagi ijodiy etalon vazifasini o’tadi.

Ijodkor 1900-yili oltin medal bilan tugatgan konservatoriyada o‘tkazgan yillarini doimo iliqlik bilan xotirlar edi. Biroq bastakorning hayotidagi bu davr uning uchun qadri bo‘lgan insonlarning vafoti tufayli bir necha bor qayg‘uga ham soldi. Dastlab Glierning bobosi olamdan o‘tdi. So‘ng 1896-yilda otasi, 1899-yilda esa opasi Setsiliya fojiali tarzda hayotdan ko‘z yumdi.

1901-yilda Yelena Gnesinaning opa-singillari Glierni o‘zining xususiy musiqa maktabida nazariy fanlar o‘qituvchisi sifatida ishlashga taklif qildi. Shunday qilib, bastakor va Musiqa pedagogika instituti (hozirgi Rossiya musiqa akademiyasi) asoschilari o‘rtasida nafaqat uzoq muddatli hamkorlik, balki mustahkam do‘stlik ham paydo bo‘ldi. Aynan shu ta’lim muassasasida Reyngold muhabbatini topdi: u dastlab shogirdlaridan biri bo‘lgan, keyinchalik esa 1904-yilda turmush o‘rtog‘iga aylangan maftunkor qiz Mariya Renkvist bilan tanishdi.



o‘tib esa Reyngold hayotida muhim voqea sodir bo‘ldi: Chaykovskiy gastrol safari bilan Kiyevga keldi. Mashhur bastakorning chiqishlarini tashkil etish Rus musiqa jamiyati zimmasida edi, ular musiqa bilim yurtini ham boshqarardi. Yosh Glier bir necha talabalar qatorida daho ustozning konsertiga kontramarka (tadbirga kirish huquqini tasdiqlovchi hujjat) olish sharafiga muayassar bo‘ldi.

Buyuk bastakor Chaykovskiy dirijyorlik qilgan, tinglovchilar tomonidan gulduros qarsaklar bilan kutib olingan “1812-yil uvertyrasi”, shuningdek, bastakor bilan qisqa uchrashuv yosh musiqachida unutilmas yorqin taassurotlar qoldirdi. Bu hayrat uning keyingi taqdirini belgilab berdi: Reyngoldda bastakor bo‘lish orzusi tug‘ildi.

Glier kompozitsiya bilan ko‘proq shug‘ullana boshladi. Musiqiy konsertlar, opera va balet tomoshalariga tez-tez boradigan bo‘ldi. Bundan tashqari, yigitcha o‘z oldiga qo‘ygan vazifani hal etish uchun juda bilimli inson bo‘lishi kerakligini ang'lardi. Shu bois, u klassik adabiyotni zavqu shavq bilan mutolaa qilar, fransuz tilini tirishqoqlik bilan o‘rganardi (nemis va polyak tillarini unga ota-onasi o‘rgatgan edi). O‘z rejaralarini tezroq ro‘yobga chiqarish istagi yigitni 1894-yilda Moskva konservatoriyasiga o‘qishga kirishga

Reyngoldning keyingi yillarda kechgan hayotini kompozitorming ijodiy yuksalishi davri deb ta’riflash mumkin. Vatanga qaytgach, Glier 1909-yil iyulida Kievda dirijyor sifatida ilk bor chiqish qildi. Bir yildan so‘ng, fevralda esa Musiqa jamiyati yig‘inida ikkinchi simfoniyasini ijro etib, muvaffaqiyatini yanada mustahkamladi. Taniqli “Yurgenson” musiqa nashriyoti bastakor qalamiga mansub barcha asarlarni nashr qila boshladi.

1912-yilda Glierning uchinchi simfoniyasi — “Ilya Muromes”ning tantanali premyerasi bo‘lib o‘tdi. Oradan bir muddat o‘tgach, u “Sirenalar” nomli simfonik orkestriga yozilgan poemasi uchun Glinka nomidagi mukofotini ikkinchi bor qo‘lga kiritdi. 1913-yilda bastakor Kiyevda yangi tashkil etilgan konservatoriyada nazariy fanlar va kompozitsiya bo‘yicha professor lavozimini egallash taklifini mamnuniyat bilan qabul qildi. Bir yil o‘tgach esa umumiy yig‘ilishda u konservatoriya direktori etib saylandi.

Glierning hayoti va ijodi o‘zi istagandek tasodiflarga, kutilmagan vaziyatlarga boy bo‘ldi. 1923-yilda Glier Ozarbayjon hukumatining taklifiga binoan Ozarbayjon xalqi ijodini yaqindan o‘rganish maqsadida Bokuga keldi va shu kundan e’tiboran qalbidan Sharq musiqasi nafosati mustahkam o‘rin egalladi. Bu ijodiy safarning samarasi o‘laroq, Ozarbayjon xalq qo‘shiqdari asosida “Shohsanam” operasi yaratildi.

Reyngold o‘z orzusi sari qat’iyat bilan harakat qildi. O‘n yoshida uni gimnaziyaqa joylashtirishganda ota-onasidan yashirincha ilk bor skripkani qo‘liga oldi va nihoyatda arzon haq evaziga ushbu cholg‘uni o‘rgatuvchi ustozni topdi.

Sermahsul ijodning keng uqlari

Glier turli xalqlar musiqiy tafakkurini o‘rganishga moyilligi, folkloridagi qadim ohanglarni simfonik va sahnaviy janrlarga singdirish tajribasi bilan boshqa bastakorlardan ajralib turardi. Aynan shu jihati uni o‘zbek musiqasi bilan ishlash uchun eng munosib kompozitorlardan biriga aylantirdi.

1930-1940-yillar Reyngold Glier ijodida O‘zbekiston bilan bog‘liq eng barakali va mazmunli davr bo‘ldi. Bu yillarda u o‘zbek musiqiy muhitiga tashqaridan qarovchi bastakor emas, balki milliy san’atning ichki ruhiyatini anglashga intilgan ijodkor sifatida faoliyat yuritdi. Sharqona ohang, xalq kuylarining tabiiy ritmi, o‘zbek musiqasiga xos dramatik ifoda uslublari uning e’tibori markazida bo‘ldi. Glier ushbu xususiyatlarni Yevropa klassik musiqa shakllari bilan uyg‘unlashtirib, yangi badiiy sifat hosil qilishga intildi.

Vaqt o‘tib borgan sari Glier o‘zbek bastakorlari bilan yanada yaqin hamkorlik qila boshladi. 1936-yilda To‘xtasin Jalilov va Tolib Sodiqov bilan birgalikda yaratilgan “Gulsara” musiqiy dramasi milliy musiqa va sahna san’atining navbatdagi bosqichini boshlab berdi. Unda xalq kuylariga asoslangan musiqiy materiallar makon bilan uyg‘unlashtirib, tomoshabin diliga yaqin va ta’sirchan badiiy til vujudga keldi.

“Gulsara” musiqali dramasi 1936-yilda sahnalashtirilgan bo‘lsa-da, aslida, u kompozitor va dramaturg Komil Yashinning 1930-yillar boshida yaratilgan va keyinchalik qayta ishlangan muhim asarlaridan biri bo‘lib, O‘zbekiston davlat filarmoniyasi huzuridagi musiqa teatri tomonidan sahnalashtirilgan.

Asar dastlabki variantida o‘sha davr o‘zbek sahna san’ati uchun dolzarb bo‘lgan ijtimoiy va ma’naviy masalalarni yoritishga qaratilgan bo‘lib, keyinchalik vaqt talablari, sahna tajribasi va ijodiy izlanishlar ta’sirida bir necha bor qayta ishlandi. Aynan shu qayta ishlash jarayonlari “Gulsara”ni shaklan va mazmunidan yetuk musiqali drama darajasiga olib chiqdi.

Tarixiy nuqtayi nazardan qaralganda, “Gulsara” o‘zbek milliy musiqali dramasi rivojlanishida burilish yasagan asarlardan biridir. U milliy sahna san’atini professional darajaga ko‘tarish borasida muhim tajriba vazifasini o’tadi. Keyingi yillarda yaratilgan ko‘plab musiqali dramalar va operalar aynan shu asar ochib bergan yo‘ldan bordi.

“Gulsara” operasi yuqoridagi musiqiy drama singari, o‘zbek ayolining tubanlikdan yuz burib, hurriyatga intilishi mavzusi bilan bog‘liq. Asarning qisqacha mazmuni shundan iboratki, yosh juvon Gulsara o‘z eri, ilg‘or ishchi Qodir ta’sirida paranjisini tashlab, o‘qishga kirishga qaror qiladi. Lekin bu rejasi Gulsaraning

kaltabin otasi — Ibrohimning qarshiligiga uchraydi. Opera qizini otasining zulmidan himoya qilmoqchi bo‘lgan qahramonning onasi — Oysaraning mudhish o‘limi bilan tugaydi. Gulsara Ibrohimning qo‘lidin qutulib chiqib, maydonga yuguradi va barcha ayollarni yangi hayot uchun kurashga chorlaydi.

Albatta, spektakl mazmunini 40-yillar oxiridagi tomoshabin asar o‘n ikki yil avval birinchi bor sahnalashtirilganidan bir oz boshqacha qabul qiladi. Vahshiyona mutaassiblik ham, paranj tashlagani uchun o‘ch olish ham o‘tmishda qolib ketgan edi. Lekin eskicha tushunchalar, xususan, ayollarga “sovuq” munosabat, ularning iqtidorini pisand qilmaslik hali hayotda uchrab turardi. Shuning uchun bunday illatlarga qarshi kurash o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan edi.

Libretto mualliflari Komil Yashin va Muzaffar Muhamedov yaxlit, izchil rivojlangan voqelikni yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Ayniqsa, bosh qahramon obrazi to‘laqonli chiqqan. Operaning boshlanishida u zaif va itoatkor, bechora ko‘rinsa-da, asar so‘ngida jabr-u jafolar tufayli o‘tmish sarqitlariga qarshi ochiq, shiddatli kurash olib boradi. Opera asosidagi musiqa namunalari Glier qayta ishlagan kuylardan tashkil topgani bois, asar katta muvaffaqiyat qozondi.

Musiqiy tafakkur sohibi

1916-yil 30-dekabrda Toshkent shahridagi “Kolizey” teatrida Ozarbayjonning mashhur rejissyori Sidqiy Ruhillo boshchiligidagi Fuzuliy dostoni asosida “Layli va Majnun” musiqiy drama (opera)si namoyish etiladi. Asar librettosini ozarbayjonchadan o‘zbekchaga Avloniy o‘giradi. Asosiy rollarni Sidqiy Ruhillo (Majnun), Durriyaxonim (Layli), Abdulla Avloniy, Nizomiddin Xo‘jaev, Farid Tohiriy, Yusuf Aliyev ijro etadi. Miyon Buzruk Solihovning “O‘zbek teatri tarixi uchun materiallar” asarida keltirilishicha, ushbu spektaklda ilk o‘zbek aktrisasi Ma’suma Qoriyeva ham qatnashgan.

Shundan so‘ng o‘zbek bastakorlari, kompozitorlari hamda dramaturglari Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostoniga qo‘l uradi. Musiqali drama janri an’analariga muvofiq, sahna asari xalqchil, milliy ruh kasb etgan holda bastalanadi. “Layli va Majnun” musiqali dramasing birinchi varianti 1922-yili Mannon Uyg‘ur tomonidan Farg‘ona teatrida sahnalashtiriladi. Bir yil o‘tib, Toshkentdagi “Tomosha bog‘i” teatrida qo‘yiladi. 1922-yildan 1933-yilga qadar “Layli va Majnun” respublika va havaskorlik teatrlarida aynan birinchi variantda muxlislarga taqdim etib kelindi. 1933-yili “Layli va Majnun” musiqali dramasing ikkinchi variantdagi musiqasini Tolib Sodiqov ustozining maslahatlariga tayanib qayta bastalaydi.

Bu davrda o‘zbek bastakor va kompozitorlari musiqali drama musiqasining ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirdi. “Layli va Majnun” keyinchalik ham bir necha marotaba tahrirdan o‘tkazildi. Avvalgi musiqiy nomerlar saqlanib, sayqallandi. Bu variantda avvalgilardan farqli o‘laroq, o‘zbek xalq musiqasi merosidan tashqari yangi bastalangan ayrim rechitativlar, ko‘p ovozli xor nomerlari kiritildi. Ijroga simfonik orkestr cholg‘u sozlaridan skripka, violonchel, kontrabas, fleyta, goboy, klarnet va litavra qo‘shildi. Ushbu spektaklni iste’dodli rejissyor Muzaffar Muhamedov sahnalashtirdi. Mohir rassom Shonazar Shorahimov sahnaviy dekoratsiya va tasvirlarni ishladi.

1940-yilda so‘z muknining sultoni Alisher Navoiy tavalludining 500 yillik tantanalari arafasida “Layli va Majnun” musiqali dramasi operalashtirish uchun Reyngold Glier Tolibjon Sodiqov bilan hamkorlikda, Xurshid librettosi asosida yirik sahna asarini yozib tugatdi. Opera yillar davomida qayta-qayta tahrirlanib, bu ijodiy jarayonga bastakor Faxriddin Sodiqov ham jalb etildi. Natijada Tolib Sodiqov, Reyngold Glier, Faxriddin Sodiqov uchligida mukammal asar paydo bo‘ldi.

Glier ijodi faqat sahna asarlari bilangina cheklanib qolmadi. U “Alisher Navoiy” filmiga musiqa yozib, o‘zbek adabiy merosining buyuk siyomosiga bag‘ishlangan kinoasar ruhini musiqiy jihatdan boyitdi. Shuningdek, o‘zbek xalq kuylari asosida yaratilgan “Tantanavor” va “Farg‘ona bayrami” simfonik uverturalari orqali milliy musiqani simfonik janrga olib chiqdi. Bundan tashqari, u o‘zbek mavzusiga bag‘ishlangan qator romanslar va boshqa musiqiy asarlar ham yaratdi.

Umuman olganda, Glierning o‘zbek milliy musiqasi uchun yaratgan ijod namunalari xalq musiqa merosiga chuqur hurmat-ehtirom bilan yondashgani bilan ajralib turadi. Folklor unsurlaridan o‘zbek badiiy tafakkurining asosiy manbai sifatida foydalangani uchun u 1937-yili “O‘zbekiston xalq san’atkori” unvoni taqdim etildi. Shu tariqa Reyngold Glier o‘zbek musiqasi tarixi sahifalarida nafaqat ijodkor, balki milliy merosga fidoyilik va hurmat namunasini ko‘rsatgan shaxs sifatida o‘chmas iz qoldirdi. Uning asarlari bugun ham o‘zbek musiqasining rivojlanish yo‘lini tasvirlaydigan, yangi avlod musiqachilariga ilhom beradigan muhim manbalardan biri sifatida qadrlanmoqda.

Azizbek YUSUPOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri